

ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSIDA JANRLAR XILMA-XILLIGI (“XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTI MISOLIDA)

Mohizar Abduqahhorova

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20079446>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy lirik merosining cho'qqisi hisoblangan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti janrlar tasnifi jihatidan tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida kulliyot tarkibidagi o'n olti xil lirik janrning badiiy xususiyatlari, shoirning janr shakllarini takomillashtirishdagi mahorati va turkiy she'riyat imkoniyatlarini namoyon etishi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada g'azal, qit'a, ruboiy va tuyuq kabi janrlarning g'oyaviy-estetik vazifalari, ularning shoir dunyoqarashi bilan bog'liqligi ilmiy asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, “Xazoyin ul-maoniy”, lirik janrlar, g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, kulliyot, aruz vazni, badiiy mahorat, poetika.

Аннотация: В данной статье исследуется классификация жанров поэтического наследия великого представителя узбекской классической литературы Алишера Навои на примере его сборника «Хазайн ул-маони» («Сокровищница мыслей»). В ходе исследования анализируются художественные особенности шестнадцати лирических жанров, вошедших в состав куллиёта (собрания сочинений), мастерство поэта в совершенствовании жанровых форм и демонстрация возможностей тюркского стихосложения. Также в статье научно обосновываются идейно-эстетические задачи таких жанров, как газель, кита, рубаи и туюг, их связь с мировоззрением поэта.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хазайн ул-маони», лирические жанры, газель, рубаи, туюг, фард, куллиёт, аруз, художественное мастерство, поэтика.

Abstract: This article examines the classification of genres in the lyrical heritage of Alisher Navoi, the prominent figure of Uzbek classical literature, based on his collection "Khazayin ul-Maoni" (The Treasury of Meanings). The research analyzes the artistic features of sixteen lyrical genres within the "Kulliyot" (collected works), the poet's mastery in refining genre forms, and the manifestation of the potential of Turkic poetry. Furthermore, the article provides a scholarly analysis of the ideological and aesthetic functions of genres such as ghazal, qita, rubai, and tuyugh, exploring their connection to the poet's worldview.

Key words: Alisher Navoi, "Khazayin ul-Maoni", lyrical genres, ghazal, rubai, tuyugh, fard, kulliyot, aruz meter, artistic mastery, poetics.

Sharq adabiyotini Navoiy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat tafakkuri xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan Alisher Navoiy siymosi nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyoti tarixida monumental hodisa sifatida gavdalanadi. Navoiy ijodi inson ruhining yuksalish bosqichlari, falsafiy mushohadalar va ilohiy ishqning so'z durlari bilan bezatilgan ummondir. Zero, shoirning o'zi ta'kidlaganidek, turkiy tilning cheksiz imkoniyatlarini kashf etish va bu tilda dunyoni hayratga soluvchi asarlar yaratish uning hayotiy maslagiga aylangan edi. Hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati merosiga katta hissa qo'shdi.

Navoiy lirik merosining cho'qqisi hisoblangan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti o'zbek mumtoz she'riyatining o'ziga xos qomusi hisoblanadi. Ushbu majmua shoirning butun umri davomida kechirgan ruhiy iztiroblari, ma'naviy kamoloti va ijtimoiy qarashlarining badiiy

in'ikosi sanaladi. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov ta'kidlaganidek, mazkur kulliyot inson hayotining to'rt fasliga qiyoslangan to'rt devonni birlashtirib, lirik turdagi janrlarning deyarli barcha namunalarini eng yuksak badiiy darajada qamrab olgan.

Devonning umumiy nomi “Xazoyin ul-maoniy” bo'lib, to'rt qismdan iborat bo'lgani uchun “Chor devon” deb ham atalgan. Devon shoirning butun hayoti davomida yozilgan she'rlarini qamrab olgan, ularda Alisher Navoiyning barcha davrlardagi kayfiyati, dunyoqarashi, orzu-umidlari ifodalab berilgan.¹ Alisher Navoiy to'rt devonning har biriga inson umrining nomiga moslab nom berdi. Bunda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davr inson umrining bahori deb ataladi va asarning birinchi devoni “G'aroyib us-sig'ar” (Bolalik g'aroyibotlari”) deb nomlanadi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atadi. 35-45 yoshni umrning kuziga qiyos etdi va “Badoyi' ul-vasat” (“O'rta yosh go'zalliklari”) deb nomladi. 45-60 yoshni umrning qishiga o'xshatib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb atadi. Har bir devonga 650tadan g'azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she'riy janrlarga ham o'rin ajratdi. Asarda 16 lirik janrning yorqin namunalaridan bahramand bo'lamiz. Shoir kulliyoti uchun maxsus debocha ham yozgan. Debocha “G'aroyib us-sig'ar” devonining boshlanish qismidan o'rin olgan bo'lib, unda an'anaviy hamd va na't qismlaridan so'ng zamona hukmdori Husayn Boyqaro madh etiladi.² G'azalning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Ro'dakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan (1353–54) boshlanadi. Navoiy turkiy tildagi g'azal janrini o'zigacha mavjud an'analardan foydalangan holda yangi bosqichga ko'tardi. Forsiy g'azalchilikning tajriba va yutuqlarini o'rganib, uning eng yaxshi jihatlarini turkiy g'azaliyot taraqqiyotiga xizmat qildirdi. Shoir “G'azalda uch kishi tavridir ul nav” deb boshlanadigan bir qit'asida forsigo'y ustozlari Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga olib, o'z g'azallarining yaratilishida bu ijodkorlar ko'rsatgan ta'sirni alohida e'tirof etadi. G'azallaridagi irfoniy-ma'rifiy, ishqiy va rindona mavzular badiiy talqinining ildizlariga ishora qiladi.

Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotning cho'qqisi bo'lib, uning g'azaliyoti insoniyat ma'naviy olamining barcha qirralarini qamrab oladi. Matnda keltirilgan to'rt asosiy yo'nalish shoir lirikasi falsafiy va badiiy mundarijasining tayanch nuqtalaridir.

1. Hamd g'azallar (Ilohiy hamdu sano)

Hamd janridagi g'azallar "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining debochasi hisoblanadi. Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Yuzung quyoshig'a zarroti kavv o'lub shaydo (“Navodir ush-shabob”, 1-g'azal) Keltirilgan “Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo...” bayti orqali Navoiy vaxdatul-vujud falsafasini ilgari suradi. Bunda Allohning jamoli koinotdagi har bir zarrada aks etishi (quyosh va zarra timsolida) badiiy talqin qilingan. Bu shoirning olam yaralishiga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

2. Na't g'azallar (Payg'ambarimiz (s.a.v) madhi)

Na't g'azallari islomiy qadriyatlar va ma'naviy komillik timsolini ulug'lashga xizmat qiladi. Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,

¹ Nozimaxon Mirzayeva. “Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asarida mug'anniyalar talqini”

² Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. “Navoiyshunoslik” Toshkent – 2019.

Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 6-g‘azal) “{Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro...” baytida Muhammad (s.a.v)ning barcha payg‘ambarlar orasidagi o‘rni va "Xotamun-nabiyyin" (Payg‘ambarlar yakunlovchisi) sifati yoritilgan. Shoir bu orqali insoniyatning eng oliy ma‘naviy darajasini tasvirlaydi.

3. Oshiqqlona yoki Ishqiy g‘azallar (Lirik qahramon kechinmalari)

Navoiy lirikasi markazida “Ishq” tushunchasi turadi. Bu yo‘nalish ham majoziy (dunyoviy), ham haqiqiy (ilohiy) ishqni o‘z ichiga oladi. Tun oqshom bo‘ldiyu kelmas mening sham‘i shabistonim,

Bu anduho‘tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 403-g‘azal) “Tun oqshom bo‘ldiyu kelmas mening sham‘i shabistonim...” bayti hijron azobi va intizorlikning yuksak badiiy ifodasidir. Lirik qahramonning ruhiy iztiroblari “parvona” va “sham” timsollari orqali an‘naviy uslubda, ammo betakror hissiyot bilan berilgan.

4. Orifona va tasavvufiy-falsafiy g‘azallar

Bu turdagi g‘azallar insonning o‘zligini anglashi va foniy dunyodan boqiy dunyoga o‘tish sirlari haqida. Dema, ne sud erur o‘lmoq fano harimig‘a xos,

Yana ne sud kerak o‘zlugungdin etsa xalos. (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 271-g‘azal”).

“Dema, ne sud erur o‘lmoq fano harimig‘a xos...” misralari inson hayotining mazmuni, o‘zlikdan kechish (fano) orqali Baqoga (abadiylikka) erishish g‘oyasini tahlil qiladi. Bu shoirning dunyoqarashi naqadar chuqur falsafiy ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy g‘azallarining bunday tasnifi shoir ijodini o‘rganishda tizimli yondashuvni ta‘minlaydi. Shoir shunchaki his-tuyg‘ularni emas, balki koinot, inson va ilohiy borliq o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuksak san‘atkorlik bilan tasvirlaydi. Uning lirikasi o‘zining metaforik boyligi va irfoniy teranligi bilan jahon adabiyoti xazinasida alohida o‘rin tutadi.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga g‘azaldan keyin tartib bo‘yicha mustazod janri kiritilgan bo‘lib, kulliyotda mustazodlar soni to‘rtta, ya‘ni har bir devonga teng tarzda joylashtirilgan. Mustazod – mumtoz adabiyotdagi lirik janr, har bir misrasidan keyin uning ikkita (birinchi va oxirgi) rukniga teng yarim misra orttiriluvchi she‘r.³

Mustazod arabcha “orttirilgan”, “ziyoda qilingan” ma‘nolarini bildirib, har misrasi 1,5 qatordan iborat she‘r shaklidir. Mustazod uchun g‘azal asos – zamin vazifasini o‘taydi. Ikkala janrning qofiyalanish tizimi, baytlar soni, matla‘ va maqta‘, taxallusning mavjudligi bu fikrni isbotlaydi: Bordim bu Sahar dayri fanp sori urub gom, maxmuri shabona, Tortar edi har lahza subuh ahli ichib jom, noqusi mug‘ona.

Kulliyotdagi uchinchi janr muxammas bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy”dan jaami o‘nta muxammas o‘rin olgan. Muxammas arabcha “beshlik” ma‘nosini bildirib, har bandi 5 misradan iborat she‘r hisoblanadi va a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a tarzida qofiyalanadi. Xazoyin ul-maoniy”ga musaddas (“oltilik”) janri ham kiritilgan bo‘lib, kulliyotdan 5 ta musaddas o‘rin olgan. Musaddas janridagi she‘rlar misolida Alisher Navoiy Lutfiy Husayniy ijodini qayta jonlantirdi, ya‘ni kulliyotdagi beshta musaddasdan ikkitasi Lutfiy, bittasi Husayniy g‘azaliga bog‘langan va bittasi shoirning o‘z g‘azaliga tasdis va bittasi shoirning o‘z tab‘idan yaratilgan musaddasdir. Bundan tashqari, asarda musammanlarning ham o‘rni bo‘lakcha, negaki bu janr

³ D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent – 2013.

Navoiygacha faqat Yusuf Amiriy ijodidagina uchragan edi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida bitta musamman bo‘lib, u “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan. Musamman a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a tarzida qofiyalangan, 7 band – jami 56 misradan iborat. She'r muraddaf (radifli) bo‘lib, “ey ko‘ngul” jumlasini radif bo‘lib kelgan. Musamman ishqiy mavzuda: oshiqning yor ozoridan shikoyat qilib, ko‘ngilga murojaati tarzida yaratilgan. Tarji’band (arabcha — qaytarish, takrorlash; band) — mumtoz adabiyotda lirika janrlaridan. Tarji’band g‘azal kabi qofiyalanib, 5 baytdan 12 baytgacha bo‘ladi, har bandi bir vaznda yozilib, bandlar oxirida boshqa bir bayt takrorlanib keladi. Bandlar takrorlanuvchi bayt — tarji’ vositasida o‘zaro bog‘lanishi tufayli Tarji’band deb yuritiladi. Barcha bandlarning oxiri o‘sha takrorlanadigan bayt bilan mazmun jihatidan uzviy boitanib keladi. Tarji’bandda takrorlanadigan ushbu bayt bayt boshi deb aytiladi⁴. Devonlarning har biridan o‘rin olgan to‘rtta tarji’bandning ikkitasi tasavvufiy, qolgan ikkitasi esa ishqiy mavzuda bitilgan. Kulliyotda bitta tarkibband ham bor. Tarkibband (arab. — tuzilish, band) — bir vaznda yozilib, g‘azal tarzida (taxallussiz) qofiyalanadigan, har banddagi baytlar soni teng bo‘lgan, har band oxirida bir bayt alohida qofiyalanib keladigan she’r shakli. Lekin takrorlanib turuvchi baytlar saklansada, bandlar miqdori turli shoirlarda turlicha. Tarkibband murakkab tuzilishga ega bo‘lib, shoirdan alohida mahorat va tajriba talab etadi. Tarkibband fors-tojik adabiyotida IX-XI, o‘zbek adabiyotida XVdan yozila boshlagan.⁵ Alisher Navoiyning tarkibbandi marsiya yo‘nalishida bo‘lib, ustoz va do‘sti Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bag‘ishlangan. Tarkibbandda shoirning aziz insonidan ayrilishi tufayli vujudga kelgan qalb og‘riqlari, dardli hissiyotlari, alamu iztiroblari bayon qilinadi. Shoir, ayniqsa, Sayyid Hasan Ardasher vafot etgan vaqtda Hirotdan uzoqda bo‘lganligi, u bilan vidolasha olmaganligidan cheksiz iztirob chekadi. Mazkur tarkibband “Navodir ush-shabob” devonidan o‘rin olgan bo‘lib, hajman 56 baytdan iborat. „Xazoyin ul – maoniy“ kulliyotidan o‘rin olgan masnaviy lirik masnaviy bo‘lib, „G‘aroyib us-sig‘ar“ devoniga kiritilgan. Masnaviy aslida noma janriga mansub bo‘lganidan Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga maktubi deb ham ataladi. Maktub hasbi hol she’riyatning go‘zal namunasi hisoblanadi.⁶ Soqiynoma — an’anaga ko‘ra, bevosita soqiya (may quyuvchi) murojaat tarzida yoziladigan, irfoniy-falsafiy mushohadalarga boy yirik hajmli lirik janr hisoblanadi. Navoiy ijodida ushbu janr quyidagi texnik va badiiy mezonlar asosida shakllangan: Qofiyalanish tizimi: Soqiynoma masnaviy shaklida (aa, bb, cc...) qofiyalanadi, bu esa shoirga keng ko‘lamli fikrlarni izchil bayon etish imkonini beradi. Tarkibiy tuzilishi: Asar bir necha bandlardan iborat bo‘lib, yaxlit kompozitsion butunlikni tashkil etadi. Navoiyning to‘rt devonini jamlagan “Xazoyin ul-maoniy” tarkibida faqatgina bitta soqiynoma mavjud bo‘lib, u xronologik jihatdan so‘nggi devon — “Favoyid ul-kibar” (“Qarilik foydalari”) tarkibiga kiritilgan. Navoiy soqiynomasi nafaqat hajman yirikligi, balki undagi hayotiy xulosalar, keksallik gashti va tasavvufiy ramzlar bilan o‘zbek mumtoz adabiyotining noyob namunasi hisoblanadi. Shoir 32 band davomida soqiya murojaat qilish orqali o‘zining ichki kechinmalari va olam haqidagi falsafiy qarashlarini mahorat bilan tizib chiqqan. Ruboiy — Sharq she’riyatining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, uning genezisi bevosita xalq og‘zaki ijodi an‘analari bilan bog‘lanadi. Garchi janr nomi arabcha "to‘rtlik" ma’nosini anglatganda, fors-tojik va o‘zbek adabiyotida u milliy adabiy an‘analar asosida shakllandi. Fors-tojik yozma adabiyotida ruboiyning ilk

⁴ <https://uzpedia.uz>.

⁵ <https://qomus.info>

⁶ ALISHER NAVOIYNING “MASNAVIY”SI - TURKIY NOMANING BETAKROR NAMUNASI Nafisa Rahmanova

namunalari Rudakiy va Shahid Balxiy qalamiga mansub bo'lsa, o'zbek yozma adabiyotida ushbu janrning dastlabki mukammal namunalari Lutfiy devonida uchraydi. Alisher Navoiy ruboiynavislikda ikki ulkan tajriba — turkiy xalq og'zaki ijodi hamda fors-tojik ruboiynavislarining boy merosiga tayandi. Shoir ushbu janrni o'zbek she'riyatining asosiy turlaridan biri darajasiga ko'tardi. Navoiyning ruboiy janridagi mahsuldorligi hayratlanarlidir: shoirning “G'aroyib us-sig'ar” devonida 133 ta, ushbu devonning nasriy debochasida 30 ta ruboiy mavjud. O'zbek mumtoz she'riyatining eng kichik, ammo mazmunan tiqiz janrlaridan biri fard (arabcha — “yolg'iz”, “yakka”) hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bir bayt, ya'ni ikki misradan tashkil topgan mustaqil she'riy asar fard deb yuritiladi. Ushbu janrning ko'plik shakli mufradot deb nomlanib, u turli hayotiy munosabatlar va ijtimoiy-falsafiy xulosalar natijasida yuzaga keladi. Fard arab, fors-tojik va turkiy adabiyotda keng tarqalgan bo'lib, uning asosiy talabi fikrni maksimal darajada ixcham va lo'nda bayon etishdir. Shakliy jihatdan fardlar, odatda, masnaviy kabi o'zaro qofiyalanadi. Bu janr shoirga hayotiy tajribalarni birgina baytga sig'dirish, o'quvchiga kutilmagan va o'tkir xulosa taqdim etish imkonini beradi. Alisher Navoiy fardlari muayyan hayotiy vaziyatlarning badiiy in'ikosi hamda falsafiy umumlashmasi sifatida yuksak qimmatga ega. Xususan, shoirning “Favoyid ul-kibar” devonida 86 ta fard o'rin olgan bo'lib, ularda insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, axloqiy poklik va ezgu fazilatlar sodda va ta'sirchan tilda talqin etiladi. Shoir fardlarida xalq maqollari va hayotiy hikmatlardan mahorat bilan foydalangan. Bunga misol tariqasida quyidagi baytni keltirish mumkin:

Yuqar yomonlig' angakim, kirar yomon el aro,
Ko'mur aro ilik urg'an qilur ilkini qaro.

Shoir yomon kishilar bilan suhbatda bo'lishning salbiy oqibatlarini ko'mirga qo'l tegizish orqali qo'lning qoralanishiga qiyoslaydi (tashbeh san'ati). Bu orqali inson yomon muhit ta'sirida o'zining ma'naviy qiyofasini yo'qotishi, jamiyat orasida badnom bo'lishi va “yuzi qora” bo'lib qolishi mumkinligi uqtiriladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy fardlari faqatgina she'riy shakl emas, balki kishilarni yomon illatlardan forig' bo'lishga, do'st tanlashda hushyorlikka chorlovchi didaktik va falsafiy dastur vazifasini o'tagan. Shoir ushbu kichik janr orqali o'zbek lirikasi ko'lamini axloqiy-tarbiyaviy jihatdan boyitgan.

Xulosa qilib aytganda, “Xazoyin ul-maoniy” Navoiy dahosi tomonidan yaratilgan yaxlit bir dunyodir. Undagi janrlar xilma-xilligi turkiy adabiyotning naqadar yuksak madaniy va estetik poydevorga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu meros keyingi asrlar davomida nafaqat o'zbek, balki butun Sharq adabiyoti uchun poetik maktab va ijodiy andoza vazifasini o'tab kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent – 2013.
2. Is'hoqov Yo. Alisher Navoiyning ilk lirikasi: Filol. fan.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissert. – T., 1963.
3. Nafisa Rahmanova. Alisher Navoiyning “Masnaviy”si – turkiy nomaning betakror namunasi.
4. Nozimaxon Mirzayeva. “Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asarida mug'anniylar talqini”
5. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. “Navoiyshunoslik” Toshkent – 2019.
6. <https://uzpedia.uz>.
7. <https://qomus.info>